



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 9-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

1-OKTABR – “O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI”
UMUMXALQ BAYRAMI!



Ta'lim-tarbiya sohasining barcha jonkuyar xodimlari va faxriylarini umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan muborakbod etamiz!

Ushbu sonda



ILG'OR PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR

Yordamchi so'zlarni
o'qitishda kognitiv-
pragmatik yondashuvli
topshiriqlar

6-
bet



TAHLIL

Po'lat Mo'min ijodida
odob-axloq motivlari

14-
bet



TADQIQOT

Italyan va rus
famiyalarini tipologiyasi

34-
bet



СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

«Острый и
оригинальный
писатель»

78-
bet

MUALLIMNING NURLI YO'LI



muloqot qilish, iste'dodini ro'yobga chiqarish, urzu-intilishlariga qanot bag'ishlashga undardi. Bunda ustoz Zulayho Hasanova yaqindan yordam berdi.

– Toshkentdagi 77-ixtisoslashtirilgan maktab-internatga yangi kelgan kezarim, – deb xotirlaydi Umida Abdullayeva. – Bir kuni muassasamiz rahbari ish daftarimni ko'zdan kechirayotib husnixatimga e'tibor berdi. Keyin maktab pedagogik kengashida kotiba bo'lib ishlashni taklif qildi. Shu tariqa maktab jamoasi bilan yaqinlashdim. Oradan bir necha yil o'tib ona tili va adabiyot fani uslub birlashmasining raisi etib tayinlandim.

O'sha kezlari Umida Abdullayeva o'ta mas'uliyatli ishga kamarbasta edi. Jonkuyar ustoz ona tili va adabiyot fanidan maktab o'quv dasturini ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilar ta'limiga moslashtirish bilan shug'ullangan.

– Har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rib, mashg'ulotlarni innovatsion metodlar asosida o'quvchilar uchun qiziqarli tarzda o'tishga harakat qilaman, – deydi qahramonimiz. – 2016-yilda pedagogik faoliyatim ilg'or tajriba sifatida e'tirof etilib, Respublika ta'lim markazi uslubchilariga uni nainki tuman yoki shahar, balki butun mamlakat miqyosida ommalashtirish tavsiya etildi. Pedagog uchun bu yuksak sharaf va rag'bat, albatta.

2017-yilda Umida Abdullayeva "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi. 2020-yilda ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilgan "Ustoz" milliy mukofotida ishtirok etdi. "Mehridaryo ustoz" nominatsiyasi uchun tayyorlagan ish faoliyatiga doir videoroligi yuqori baholanib, bellashuvning keyingi bosqichini ham yaxshi natija bilan yakunladi. Umida Abdullayevaning finalga yetib borgan 30 nafar eng faol o'qituvchi safidan joy olgani qanchalik quvonchli bo'lsa, g'oliblar ichra nogironligi bor bolalarga saboq berayotgan yagona muallima ekani shunchalik faxrli.

Umida opaning o'quvchilari o'zi kabi shashti baland, ilmsevar o'g'il-qizlardir. Ular muntazam ravishda fan olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. O'tgan o'quv yilida shogirdlaridan Farida Ravshanova umumta'lim fanlari olimpiadasining respublika bosqichida ixtisoslashgan maktablar uchun ona tili va adabiyoti fanidan birinchi, Zuhra Avazova uchinchi o'ringa sazovor bo'lgani fikrimizni tasdiqlaydi.

Mehridaryo ustoz Umida Abdullayevaning ko'p yillik mashaqqatli va samarali mehnatlari bugun qadr topdi. Muallima Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarga qo'shgan munosib hissasi, ilmiy-amaliy faoliyati bilan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, mamlakatimizda ilm-fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish, yoshlarimizni ona yurtga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ulkan xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi munosabati bilan fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, san'at sohaları va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

– Davlat mukofotiga muyassar bo'lishimda meni tarbiya qilgan ota-onam, ta'lim bergan ustozlarim, hamisha qo'llab-quvvatlagan umr yo'ldoshim, maktabimiz rahbariyatining hissasi katta. Bu bir men emas, balki yurtimizdagi barcha ustoz-murabbiylar mehnatining e'tirofi. Inson oldiga katta marralar qo'yishdan, o'qib-izlanishdan to'xtamasligi kerak. O'quvchilarim kamolotini ko'rish – niyatim. Shu istak yo'lida yashayman!

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2014-yil
19-dekabrda 0055-raqam
bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.

9-son.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.28.09. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garniturası. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3550 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

MUNDARIJA

	Suhbat	
Bahodir Jovliyev. Ona tili va adabiyot tarbiyada yengilmas qurol		3
	Adabiy taqvim	
Gulandom Quramboyeva. Hayot falsafasin kuylagan adib		5
	Ilg'or pedagogik texnologiyalar	
Umud Hamroyev. Yordamchi so'zlarni o'qitishda kognitiv-pragmatik yondashuvli topshiriqlar		7
Abdimurat Namazov. Amaliy yondashuv – nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi		10
Umida Shermatova. Mustaqil mutolaaga o'rgatish usullari		11
Xolida G'ulomova. Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi		13
	Tahlil	
Safo Matchonov. Po'lat Mo'min ijodida odob-axloq motivlari		15
Yana Arustamyan. The issues of teaching terminology in the sphere of cinematography		17
Feruza Sharopova. O'qib tushinishni rivojlantiruvchi ko'nikma va strategiyalar		21
Shakhnoza Akhmedova. Concepts of myth, mythology and mythopoetics in modern English literature		23
Xolida Bazarova. She'riyatda payg'ambarlar obrazi		24
	Tadqiqot	
Abduraxim Nasirov. Proverbial frazeologizmlarning xususiyatlari va belgilari		26
Fazliddin Sharipov. Milliy korpus masalasi – bugungi kun muammosi		30
Azamat Uralov. Morfologik shakllarda dualizm, konversiya va transpozitsiya jarayonlari bilan bog'liq nomutanosibliklar		32
Iqbol Koziyeva. Italyan va rus familiyalari tipologiyasi		35
Nasiba Shodiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning leksik-semantik tahlili		36
Rimma Biksaliyeva. The problem of definition and classification of neologisms in the russian language		39
	Metodik tavsiya	
Mahbuba Tojiboyeva, Alisher G'oziyev. Arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvini o'rganishda o'zlashgan so'zlarni aniqlash		40
	Tarjimashunoslik	
Gulchehra Saydaliyeva. Translation of names in "lison ut-tayr" (Language of the birds) into English		42
	Mulohaza	
Qayum Baymirov. Pedagogik ta'lim: mohiyat, tartibot va mazmun		44
	Kichik tadqiqot	
Gulrux Rahmonova. Milliy harakatli o'yinlardan jismoniy tarbiya darslarida samarali foydalanish yo'llari		46
	Методические рекомендации	
Фарида Умарова. Мой гардероб.....		49
	Используйте эти материалы	
Гульшод Хамраева. Система упражнений для обучения стилистическим свойствам наречий русского языка студентов узбекской аудитории		53
Хилола Юнусова. Язык и межкультурная коммуникация		56
	Языковедение	
Дилдора Толипова. Лакунарные единицы в произведении Алишера Навои «Мухокамат ул-лугатайн»		58
	Изучаем иностранные языки	
Ольга Ким. Классификация, сходства и различия глаголов и адъективов в корейском языке.....		60
Матлюба Мирханова. Формирование умственной самостоятельности студентов по иностранному языку.....		63
	Литературоведение	
Суван Мели. Созвучие		65
Мадинабону Ахмедова. Вопросы прагматики в русских и узбекских рассказах и легендах.....		66
Нафиса Нематжоннова, Фариза Моминова. Несколько слов о творчестве Нурали Кабула		68
	Зарубежная литература	
Умида Гафурова. Жанровое своеобразие романа Полетт Джэйлс «Новости со всех концов света»		69
	Научные исследования	
Гулноза Нарбаева. Мотивация фразеологизмов испанского языка с зоологическими соматизмами		71
	Внеаудиторная работа	
Эльвина Алиева. «Знаем ли мы Пушкина?»		74
	Свет негаснущих имен	
Анатолий Лиходзиевский. «Острый и оригинальный писатель»		78

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.



Gulandom QURAMBOYEVA,

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

HAYOT FALSAFASIN KUFLAGAN ADIB

Bugungi qoraqalpoq adabiyotida ham nazm, ham nasrda ijod qilib, xalqimiz orasida keng tanilgan O'zbekiston xalq yozuvchisi, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Kengesboy Karimov serqirra adiblardan biridir.

U 1948-yil 27-avgustda Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanida tug'ilgan. 1975-yilda Qoraqalpoq davlat pedagogika institutini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi qoraqalpoq tili va adabiyoti o'qituvchisi.

Mehnat faoliyatini 1967-yilda “Erkin Qoraqalpaqstan” gazetasida boshlagan. Yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi turli gazeta va teleradiokanallarda faoliyat yuritgan.

Kenes Karimov 2004-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, 2013-yil O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri, 2015-yil „El-yurt hurmati“ ordeni bilan taqdirlangan.

2020-yildan buyon Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi deputati. 2011-yildan Qoraqalpog'iston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi raisi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Kengesboy Karimovning “Oraliqlar”, “Vaqt minorasi”, “Unutilgan yarim oy”, “Mening derazalarim”, “Oroldan keldim”, “Ko'ngil mulki” va boshqa she'riy to'plamlari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. O'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida adabiyotga kirib kelgan K.Karimovning ilk she'riy mashqlari o'sha davridayoq respublika matbuotida e'lon qilingan. Keyinchalik uning ijodi o'zining ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy asoslariga ko'ra istiqbol davri qoraqalpoq lirikasi kamolida alohida o'rin tutdi.

K.Karimov teran fikrli shoir. Uning she'rlarida milliy ruh, an'analarga sodiqlik, o'z xalqi va millati ruhini namoyon etadigan betakror poetik obrazlar ko'zga tashlanib turadi. Inson va tabiat, yaxshilik va yomonlik, muhabbat va sadoqat kabi mavzulardagi asarlari Qoraqalpog'iston xalq shoiri Rustam Musurmon tarjimasida o'zbek kitobxonlariga taqdim qilingan. Biz R.Musurmon tarjimalarini asliyat bilan solishtirish jarayonida shunday xulosaga keldikki, tarjimon o'zining shoirlik iste'dodiga tayanib, qoraqalpoq adibi asarlarini barcha komponentlari va milliy koloritini saqlagan holda o'quvchining estetik didiga mos tarzda o'g'irgan. Quyida misollarni aynan R.Musurmon tarjimalaridan keltirishni ma'qul ko'rdik.

K.Karimovning 2021-yili Toshkentdagi “Adabiyot” nashriyotida chop etilgan “Masofalar” nomli ilk she'riy to'plamiga saksonga yaqin she'rlari va “Ustyurt dos-toni” kiritilgan. Kitob mundarijasining qamrovi keng va rang-barang. Mavzular xarakteridan kelib chiqib, fasllar alohida nomlangan. To'plamdagi har bir ijod namunasida shoirning badiiy tafakkuri, hayot hodisalariga muno-

sabati, ulardan umumiy xulosalar chiqara olish iqtidori sezilib turadi.

Lirikada poetik obraz ko'p va rang-barang bo'lsa, she'ning badiiy-estetik saviyasi ham o'quvchini qoniqtiradigan darajada yuksak bo'ladi. K.Karimov lirikasida “So'qmoq” (“Tug'ilgan tuprog'im so'qmog'i”, “Bolalik so'qmog'i”, “Yoshlik so'qmog'i”, “Umr so'qmog'i”) deb nomlangan turkum she'rlar bor. Ular inson hayotining to'rt fasliga bag'ishlangan. Har bir faslda inson taqdirida ro'y beradigan real voqelik, ruhiy holatlar borasidagi fikrlar she'riy satrlarga singdirilgan. Aslida inson u yoki bu faslda qanday kayfiyatda bo'ladi, xayolidan nimalar kechadi? Har bir shaxs bu holatni his qilishini shoir haqqoniy ifodalay olgan. Bu tuyg'uni hamma ham boshidan kechirishi tabiiy.

Ko'ngil alg'ov-dalg'ov, xotira og'ir,

Shu olis yo'llarda yo'qotdim neni?

Dedi: “Qadamingga bosaman bag'ir” –

Chimboy so'qmoqlari chaqirdi meni. [1: 22]

Inson borki, o'zining sho'x-shodon kunlari o'tgan, o'y-xayollari va orzularini yo'rgaklagan maskani tomon talpinadi. Shoir kindik qoni tomgan yurtiga sadoqati, mehri, “Chimboy so'qmoqlari”da kechgan umr lahzalarini, “ko'nglida barq urib o'sgan orzular”ini ilhom va sog'inch bilan yozsa, “Bolalik so'qmog'i”da bolaligini xotirlaydi, qo'msaydi, “senga qaytgim keladi”, “Seni quchoqlashga zor bo'ldim, so'qmoq”, deb dard chekadi. Lekin baribir so'qmoqlar undan mamnun:

Azizdir tepasi, chuquri, qiri,

Yurakka tutashgan boshi-oxiri,

Sendan yurgan odamzodining bari,

Har kimga o'zgacha yor bo'lgan so'qmoq. [1: 23]

To'rtlikda falsafiy ma'no mujassam: inson kim va qanday martabaga erishmasin, bolalikning shu so'qmog'idan yurib o'tadi. Ular qanday murakkab bo'lmasin, inson bolalik so'qmog'ini sog'inib yashaydi. Shu g'oya she'r mazmuniga singdirilgan.

Inson hayoti davomida yoshlik so'qmoqlarini bosib o'tadi. Bu fasl yoshlikning hayajonli, to'liqinli, gohida quvonchli, gohida iztirobli kechinmalari bilan ham boshqa fasllardan o'zgacha. Mana shu kolliziya, ichki ziddiyat she'rda o'ziga xos ifoda yo'sinida berilgan.

“Umr so'qmog'i”da ham shoirning inson taqdiriga daxldor armonlar, ushalmagan orzular, keksalikning tashvishli kechinmalari qalamga olinadi. Aslida bu so'qmoq bolalik so'qmog'iga ham, yoshlik so'qmog'iga ham o'xshamaydi, chunki uning ko'ngilni xijil qiladigan hasrat-u iztiroblari, mashaqqatli dovonlari ham borki, shu bois bu so'qmoq ham inson taqdiriga o'z muhrini bosadi. Shoir yozadi:

*Sen telba dengizsan, ufurgan to'fon,
Ko'z yumib ochguncha boshlangan bo'ron,
El-yurtim kechirgan ne davr-u davron,
Hasratim, armonim – umr so'qmog'i. [1: 27]*

She'nda umr so'qmog'i “badavlat karvon”, “hasratim, armonim”, “kurashim, isyonim”, “murakkab dovonim”, “makri ko'p jononim”, “hamrohim, hayronim” deya ta'riflanganki, bu fasl so'qmog'ining naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Ushbu so'z birikmalari, lirik qahramon kayfiyatini ifodalovchi muhim ifodalar, shoirning mahoratiga dalildir.

Mashhur rus adibi Stepan Shipachevning: “Lirik shoir o'z qalbini to'kib solmaguncha tasvirilayotgan insonning ma'naviy dunyosini to'liq ocholmaydi... Shoir ezgu tuyg'ularini, muqaddas fikrlarini odamlarga qanchalik ishonib topshirar ekan, u o'quvchiga shunchalik yaqin bo'lib qoladi” [2: 110] degan so'zlarini bevosita K.Karimov ijodiga nisbatan qo'llash mumkin. Zero, shoir qalbidan kechgan barcha hislarini kitobxonlar bilan o'rtoqlashgani bois ham uning ijod namunalari muxlislar qalbidan chuqur joy egallagan.

“Ko'klam yomg'iri”, “Ayron” she'rlarida K. Karimovning qofiya va radif qo'llash san'ati, shoir uslubini belgilaydigan boshqa komponentlar, ayniqsa, she'rlarning milliy koloriti rangin ifodalarda aks etgan. Misol tariqasida shoirning obrazli tafakkuri mahsuli bo'lgan “Ayron” she'rini keltirish mumkin.

Ayron – turkiy xalqlarning an'anaviy ichimligi. Shoir “ayron”ni shunchaki ta'riflash yo'lidan bormaydi, balki unga falsafiy ma'no yuklaydi, uni poetik obrazga aylantiradi.

*Meshkobdan quyilib kuviga tushding,
Kuvi sopdan obdan tayoq yeb pishding,
Qaymoqdan ayirib, yovg'onga qo'shding,
Ming bora elakdan o'tgan ayronsan. [3: 16]*

Bandning ikkinchi “Kuvi sopdan obdon tayoq yeb pishding” misrasi shoirning yutug'i, kashfiyoti desak mubolag'a bo'lmaydi. Hali hech bir shoir ayronning “tayoq yeb” bu holatga tushishini xuddi shu shakl va mazmunda talqin qilgan emas.

Qoraqalpolarda “ayron alishish” odati bor. Biror kishi eshigingizga ayron so'rab kelsa, uni sira quruq qaytarmaysiz. “Ayronsan” she'rida bu odat ham qalamga olingan va shu orqali ayronning yana bir noyob “xizmat” ta'riflangan.

*Uydan quruq ketmas ayron so'ragan,
Qo'shniidan ovulga, elga taragan,
Oq bo'lib, osh bo'lib kunga yaragan,
Hamisha xizmatda turgan ayronsan.*

Aslida beg'araz, yengil kulgiga qurilgan, milliy koloritga boy bunday she'rni yozish kamdan-kam shoirga nasib etadi.

Qoraqalpog'istonda mashhur turkman shoiri Maxtumquli an'analariga ergashib turkum she'rlar bitgan shoirlar ko'pchilik. K.Karimov ham o'z ijodida Maxtumquli merosiga murojaat etib, shoir g'oyalari-ni yangi mafkura, yangi tafakkur mezonlari asosida zamonga moslashtirgan. U “Ne ma'no” nomli she'rida sharob ichib, umrini behuda aysh-ishratlarga sarf qilib yurgan beg'am kimsalarni gumroh yo'lovchiga o'xshatadi:

*Farqin bilmay gunoh bilan savobni,
O'ylamasdan oxiratda javobni,
Quva-quva armon otli sarobni,
Bu dunyoda yashishingdan ne ma'no?*

Yozuvchi bolalarga bag'ishlab asarlar ham yozdi. Uning qalamiga mansub “Oltin tanga”, “Oriq mergan” pyesalari yosh tomoshabinlar teatri sahnasida namoyish etilgan.

K.Karimov qoraqalpoq nasri rivojiga ham o'zining badiiy barkamol asarlari bilan katta hissa qo'shib kelayotgan yozuvchilardan. Uning ayniqsa, “Og'abiy” roman-dilogiyasi tarixiy romanchilikdagi jiddiy yutuqlardan biri. Muhimi, qoraqalpoq nasri T.Qaybergenovdan keyin yana bir tarixiy roman bilan boyidi. Qoraqalpoq xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan Ernazar biy, Maman biy, Oydo's biy kabi tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari qatoriga yana bir tarixiy shaxs Erejep-Og'abiy badiiy obrazi qo'shilgani yozuvchi, qolaversa, qoraqalpoq adabiyotining ham katta yutug'i bo'ldi.

“Og'abiy” tarixiy roman. Bosh qahramon ham tarixiy shaxs. Asarda qoraqalpoq xalqining yaqin o'tmishi, Orolbo'yi xalqlarining tinch, farovon hayot, baxtli turmush uchun kurash yo'li, bu yo'lda xalqiga rahnamolik qilgan mard, jasur Og'abiydek yurt farzandlari misolida butun xalqning ma'naviy-axloqiy sifatleri badiiy gavdalantiriladi. Romanning har bir sahifasida qoraqalpoq xalqi ruhi, o'ziga xos tabiati, urf-odatleri va an'alarining betakror tasvirini kuzatamiz. Bu yozuvchining asarni yozish jarayonida davr tarixiy sharoiti va hayot materialini puxta o'rganganidan dalolatdir.

K.Karimov o'zbek va jahon adabiyoti namunalari qoraqalpoq tiliga tarjima qilib kelayotgan mohir tarjimonlaridan biri hamdir. U A.S.Pushkin, A.Blok, Sa'diy asarlarini mahorat bilan qoraqalpoq tiliga o'g'irgan. Tarjimalarda she'rlarning qofiya, bo'g'in o'lchovlari qoraqalpoq tiliga moslashtirilib, poetik ohangda berilgan.

Kengesboy Karimov hali o'zbek va qoraqalpoq adabiyoti rivojiga teran mazmunli, yuksak badiiy saviyadagi asarlari bilan salmoqli hissa qo'shishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov K. Masofalar. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
2. Rahimjonov N. Shoir va davr. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1983.
3. Karimov K. Qoraqalpoq – elim mening. – Toshkent: Yangi kitob, 2020.

MUALLIM...

Muallim, ustozim, noni halolim,
Kamtar tabassuming o'zi bir bayot.
Sening mehring porlab turmaganda gar,
Mayoqsiz kemaday qolardi hayot.
Minnatli dunyoda beminnat jonsan,
Kuz kabi saxosan – tunganmas shonsan.

Jajji barmoqlarim ketar jimirlab,
Harflar toshganda katakchalardan.
Hayotimga ko'char qo'lingning tafti
Hayrat unib chiqar yurakchalardan.
"Birovning bolasi" demagan sensan,
Ma'rifat ma'danin ulashgan konsan.

Maktab partasidan quyoshgacha to,
Xaritasin chizgan o'zingsan, beshak.
Bir harf o'rgatmoqning zahmatin ko'rsa,
Senga farishtalar roz aytsa kerak.
Mehnati ko'rinmas, toza imonsan,
Tafakkur toqiga eltar narvonsan.

Shamolli kechada chiroq ko'tarib,
Halovatin berib yomg'ir-qorlarga.
Men ko'rdim – sen goho mayus-u dilgir,
Dars jadvali tuzding paxtazorlarda.
Hosili qirq yilda pishgan dehqonsan,
Zahmati bir onda unut insonsan.

Anglasa, savodxon bo'lgaydir dunyo,
Navoiyning ulug' sadolaridan.
Jaholat lashkari qaytib ketadi,
Oddiy muallimning duolaridan.
Temurni jahonga bergan jahonsan,
Pirdirsan, ustozsan, ko'ksi osmonsan.

Ustoz, senga ta'zim, qo'limdan tutib,
O'zbek deb yozishni o'rgatding menga.
Dunyo etagiga namoz o'qigan
Hazrat Buxoriy ham shogirdidir senga.
Shunday sharaf bilan turgan insonsan,
Igna bilan quduq qazigan jonsan!
Muallim, ustozim, noni halolim...

Shodmonqul SALOM.



Shodmonqul Salom

Shodmonqul Salom 1980-yil 23-dekabr Qumqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Publitsist, nosir va muharrir. Shoir "Do'stlik" ordeni sohibi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Ijodkorning "Yurak iqlimi", "Ko'ngil kitobi", "Borligini bilganlar", "Ko'ngil obidasiga yo'l", "She'r sayyorasi", "Tongning iqbolini tilarmen" kabi kitoblari nashr etilgan.

Shuningdek, iste'dodli shoirning "Yurak iqlimi", "Ko'ngil kitobi", "Borligini bilganlar", "Ko'ngil obidasiga yo'l", "She'r sayyorasi", "Tongning iqbolini tilarmen" kabi she'riy asarlari o'quvchilar e'tiborini qozongan.

She'rlari turk, rus, tojik, qozoq, qirg'iz tillariga tarjima qilinib, turli adabiy-badiiy jurnal va almanaxlarda chop etilgan.





«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»

Поиск по сайту

Kengaytirilgan qidiruv

Katalog

Yangiliklar

Adabiy taqvim

Jurnal

Elektron ilova

Tanlovlar

Maqola topshirishga qo'yilgan talablar

Arxiv



Home / Elektron ilova

Elektron ilova

Home / Jurnal / Jurnalning elektron shakli / 2021-yil

2021-yil

Tartiblamang Mahsulotlarni tanlash

Fayzullaev Xolmo'min, Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi / Qisada "Tabiat yo'rig'i" konsepsiyasi
Artikuli: Yo'q
Download
TANISHIB CHIQING
Savatga

Shakhnoza Sultanova, Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, teacher / Linguistic principles of compiling grammar term e-dictionaries
Artikuli: Yo'q
Download
TANISHIB CHIQING
Savatga

Nurbay labborov, Biologiya fanlari doktori, professor/Furqat fenomeni
Artikuli: Yo'q
Download
TANISHIB CHIQING
Savatga

Tartiblamang Mahsulotlarni tanlash

12-son. 2021-yil (o'zbek tilida)
Artikuli: Yo'q
Download
10 400 SO'M
Buyurtma qiling

11-son. 2021-yil (o'zbek tilida)
Artikuli: Yo'q
Download
10 400 SO'M
Savatga

10-son. 2021-yil (o'zbek tilida)
Artikuli: Yo'q
Download
10 400 SO'M
Savatga

O'QITUVCHILAR VA YOSH ILMYI TADQIQOTCHILAR DIQQATIGA!

Sizga kasbiy faoliyatda yordamchi ilmiy-metodik jurnalning "tilvaadabiyot.uz" sayti elektron nashr sifatida ro'yxatdan o'tdi.

Demak, Siz mutolaa qiladigan nashrlar soni bittaga ko'paydi.

Ilmiy-metodik, adabiy-badiiy elektron nashr Sizni ilm-fan va adabiy jarayonga doir yangiliklar bilan tanishtirib boradi.

Elektron jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi nashr hisoblanadi.

Siz maqolangiz chiqqan nashrni Internet tarmog'idan bevosita yuklab olishingiz mumkin.

Maktab o'qituvchilarining elektron jurnalda chop etilgan maqola va metodik ishlanmalari Respublika miqyosida ommalashtirilgan metodik material sifatida e'tirof etilib, tegishli SERTIFIKAT taqdim etiladi.

Telegram manzili: https://t.me/TAT_jurnal

Tahririyat manzili: Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Telefon raqamlarimiz:

Bosh muharrir o'rinbosari: (71) 233-03-62

Mas'ul kotib: (71) 233-03-10

Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi:

(71) 233-03-45

Til o'qitish metodikasi bo'limi:

(71) 233-03-67

Chet til o'qitish metodikasi bo'limi:

(71) 233-03-67

Преподавание языка и литературы:

(71) 233-03-67

Hisobxona: (71) 233-03-68



@TAT_JURNAL



INDEKS 872